III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

2019 yilning yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 14877,3 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 105,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 14520,7 mlrd. so‘mni (105,2 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,08mlrd. so‘mni (80,0 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 118,7 mlrd. so‘mni (101,9 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 237,8 mlrd. so‘mni (173,8 foiz) tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2019 yil yanvar-dekabrida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 73,9 foizini tashkil qildi. (2018 yil yanvar-dekabrida – 76,8 foiz), fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 25,0 foizi ishlab chiqarilgan (2018 yil yanvar-dekabrida 21,9 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 1,1 foizini (2018 yil yanvar-dekabrida – 1,3 foiz)tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari(xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur’atlari



Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Xiva shahrida (111,8 foiz), Yangiariq (108,8 foiz), Xiva (108,7 foiz), Bog‘ot (107,7 foiz), Qo‘shko‘pir va Yangibozor (107,4 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Urganch shahrida (96,4 foiz) kuzatildi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulot (xizmat) larini hududlar kesimida taqsimlanishi

(foiz hisobida)



Viloyatning qishlok, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Xazorasp va Urganch tumanlariningulushi 11,9 va 11,4 foizni tashkil etdi va hududlar bo‘yicha etakchilik qilmokda, Xonqa, Shovot, Bog‘ot va Gurlan tumanlari mos ravishda 11,0 foiz, 10,0 foiz va 9,5 foiz ko‘rstakich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva (0,3 foiz) va Urganch (2,5 foiz) shaharlarida qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 105,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 109,1 foizni va chorvachilik mahsulotlari 102,0 foizni tashkil qildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 14412,9 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 7817,5 mlrd. co‘mga teng qismi yoki 45,8 foizi dehqonchilik, 6595,5 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 54,2 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda dehqonchilik mahsulotlari etishtirishda Xiva (53,1 foiz), Bog‘ot (52,3 foiz) va Yangibozor (51,7 foiz) yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Eng kam ulushUrganch (2,7 foiz) va Xiva (32,7 foiz) shaharlarida qayd etildi.

Shuningdek, Urganch shahrida 97,3 foiz, Xiva shahrida 67,3 foiz, Yangiariq tumani 59,2 foiz va Xazorasp tumanlarida 58,1 foiz asosan chorvachilik sohasining rivojlanganligini ko‘rsatdi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi



Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yukori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangibozor (32,6 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (100,0 foizi) va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xonqa (4,3 foizi) tumanlarida qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Yangiariq (19,3 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Yangibozor (67,0 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch va Xiva shaharlarida qayd etildi.

Dehqonchilik. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 6595,4 mlrd. so‘mni yoki jami etishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 45,8 foizini tashkil qildi.

2018 yilning shu davriga nisbatan 109,1 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 3288,2 mlrd.so‘mni (120,4 foiz), dehqon (shahsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 3270,6 mlrd. so‘mni (101,6 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 36,6 mlrd. so‘mni (60,2 foiz) tashkil qildi.

Viloyatda 2019 yilda 257,1 ming tonna paxta etishtirilib, 2018 yilga nisbatan 32946 tonnaga yoki 14,7 foizga o‘sdi.

Viloyatda davlat xirmoniga 119,2 ming tonna jami don shundan 93,8 ming tonna boshoqli don topshirildi. Bundan tashqari kelgusi yil hosili uchun 8,4 ming tonna urug‘lik don ham tayyorlandi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Hosil yig‘imi. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 434276 tonna don ekinlari (2018 yilning shu davriga nisbatan 112,7 foiz), 120356 tonna kartoshka (103,9 foiz), 585948 tonna sabzavot (103,0 foiz), 139266 tonna poliz (113,0 foiz), 151876 tonna meva (102,5 foiz), 43136 tonna uzum (109,4 foiz) yig‘ib olindi.

Chorvachilik. 2019 yil yanvar-dekabr oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 7817,5 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 309,0 mlrd. so‘mni (117,5 foiz), dehqon (shahsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 7385,3 mlrd. so‘mni (101,3 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 123,2 mlrd. so‘mni (109,9 foiz) tashkil qildi.

Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jaliklari toifalari bo‘yicha taqsimlanishi *(foiz xisobida)*



2020 yilning 1 yanvar holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,3 foizni (jami 924,0 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 100,9 foizni (348,5 ming bosh), qo‘y va echkilar 101,9 foizni (436,5 ming bosh), otlar 100,8 foizni (5,6 ming bosh), parrandalar 111,1 foizni (6174,9 ming bosh) tashkil qildi.

2020 yil 1 yanvar holatiga chorva mollari bosh sonlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,5 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,7 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 67,2 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2020 yil 1 yanvar holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	*o‘sish sur’ati, %*
Yirik shoxli qoramol	**924,0**	**101,3**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	61,0	102,7
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	856,9	101,3
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	6,1	96,2
***ulardan:* sigirlar**	**348,5**	**100,9**

	ming bosh	*o‘sish sur’ati, %*
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	22,3	103,7
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	324,4	100,7
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1,8	105,9
Qo‘y va echkilar	**436,5**	**101,9**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	51,1	108,7
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	382,9	101,1
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2,5	104,2
Otlar	**5,6**	**100,8**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	0,6	99,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	5,0	100,8
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar		
Parrandalar	**6174,9**	**111,1**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	731,2	108,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	3869,4	108,2
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1574,3	120,3

2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	miqdori	*o'sish sur'ati, %*
Go'sht (tirik vaznda), *ming t*	**159,8**	**101,2**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	5,0	118,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	153,9	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	0,9	77,1
Sut, *ming t*	**1035,7**	**102,3**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	38,3	110,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	994,1	102,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	3,3	105,9
Tuxum, *mln. dona*	**505,8**	**109,9**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	36,9	105,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	302,9	101,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	166,0	131,1
Jun,*t*	**1150**	**104,5**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	88	111,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	1055	103,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	7	233,3
Qorako'l teri, *dona*	**11740**	**136,2**
shu jumladan:		

	miqdori	*o‘sish sur’ati, %*
Fermer xo‘jaliklarida	412	116,7
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	11311	137,1
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	17	113,3
Pilla, t	**1875,3**	**124,5**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	1669,5	180,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	-	-
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	205,8	35,5
Asal, t	**1009**	**105,6**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	187	116,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	809	103,3
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	13	111,1

Fermer xo‘jaliklari. 2019 yilning yanvar-dekabrda fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3597,3 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 120,1 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 25,0 foizni tashkil etdi.

2020 yilning 1 yanvar holatiga fermer xo‘jaliklarida 61,0 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 22,3 ming bosh sigir, 51,1 ming bosh qo‘y va echkilar, 731,2 ming bosh parrandalar mavjud bo‘lib, 2018 yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 102,7 foizni, shu jumladan sigirlar 103,7 foizni, qo‘y va echkilar 108,7 foizni, parrandalar 108,6 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari

	yanvar-dekabr				*2018 yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida*
	2018 yil		*2019 yil*		
	tonna	*ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	*tonna*	*ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	
Jami don	212782	55,2	266797	61,4	125,4
shu jumladan:					
boshoqli don	159302	61,1	173626	64,7	109,0
shundan:					
bug‘doy	158249	61,1	170907	64,9	108,0
Kartoshka	10747	9,3	12778	10,6	118,9
Sabzavot	90835	16,0	98603	16,8	108,6
Poliz	46507	37,7	60718	43,6	130,6
Meva	46934	31,7	48541	32,0	103,4
Uzum	8265	21,0	9597	22,2	115,6
Go‘sht, *tirik vaznda*	4214	2,7	4989	3,1	118,4
Sut	34588	3,4	38339	3,7	110,8
Tuxum, *mln. dona*	34,9	7,6	36,9	7,3	105,5
Jun, *tonna*	79	7,2	88	7,7	111,4
Qorako‘l, *dona*	353	4,1	412	3,5	116,7
Pilla, *tonna*	926,2	61,5	1669,5	89,0	180,3
Asal, *tonna*	161	16,8	187	18,5	116,1

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Jami don*(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha434276



Kartoshka *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha120356



Sabzavotlar *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha 585948



Poliz *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha139266



Meva *(tonna)*
Jami viloyat bo'yicha **151876**

Uzum *(tonna)*
Jami viloyat bo'yicha **43136**





2020 yil 1 yanvar holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar*(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha **924018**

shu jumladan sigirlar*(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha **348515**





Qo‘ylar va echkilar *(bosh)*
Jami viloyat bo‘yicha **436503**



Parrandalar *(ming bosh)*
Jami viloyat bo‘yicha **6174,9**



2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go‘sht *(ming tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha **159,8**



Sut *(ming tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha **1035,7**



Tuxum *(mln. dona)*
Jami viloyat bo'yicha **505,8**



Jun *(tonna)*
viloyat bo'yicha **1150,0**

Jami



Baliq (tonna)
Jami viloyat bo'yicha 16182,0



Asal(tonna)
Jami viloyat bo'yicha

1009,1



Fermer xo‘jaliklarida etishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi*(foizda)*



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va etishtirish ham hisobga olinadi. SHuningdek yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorinva tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliq xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek ushbu sohani rivojlantirish, zahiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari - ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektidir.